



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

**“RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING
INTEGRATSIYALASHUVI: MATEMATIKA, IQTISOD,
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO‘PLAMI**



2026-yil
20-aprel

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX
FILIALI



RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)
2-qism

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarni liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislarini to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A., p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M., Alimov.S. Xoljigitov D.X., Abriyev N.T.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan yoshlar masalasining doimiy ravishda kun tartibiga olib chiqilishi, ularning ta’lim olishi, ish bilan ta’minlanishi, tadbirkorlik bilan shug’ullanishi va ijtimoiy himoyasi masalalariga alohida e’tibor qaratilishi ushbu sohadagi fidoyilikni ko’rsatadi. Yoshlar endi jamiyat hayotining chetda qolgan qatlami emas, balki islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ularning zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklaydi. Davlatimiz tomonidan berilayotgan ishonchni oqlash, bilim va malaka oshirish, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shish har bir yoshning muqaddas burchidir. Ana shu ishonch va mas’uliyat uyg’unligi bugungi yoshlar siyosatining asosiy tamoyiliga aylangan. Yoshlar e’tiborining davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi tasodifiy emas. Bu — tarixiy tajribadan olingan saboq, bugungi ehtiyoj va kelajak maqsadlarining uyg’unlashuvidir. Davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlar oldiga katta mas’uliyat qo’yadi: bilimli, vatanparvar va fidoyi avlod bo’lib yetishish. Aynan shu mas’uliyat yoshlarni Yangi O’zbekiston taraqqiyotining ishonchli tayanchiga aylantiradi.

Yoshlarga bo’lgan e’tibor faqat ta’lim yoki bandlik bilan cheklanib qolmaydi. Ijtimoiy himoya tizimi ham davlat siyosatining muhim yo’nalishiga aylangan. Chunki jamiyatda ijtimoiy adolat ta’minlanmas ekan, hech qanday islohot barqaror bo’la olmaydi [3-4].

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ijtimoiy himoya masalasi alohida e’tibor markaziga chiqarildi. Kam ta’minlangan oilalar, ehtiyojmand yoshlar va ayollarni qo’llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Bu yondashuv davlatning inson manfaatini ustuvor deb bilishini yaqqol namoyon etadi. Ijtimoiy himoya yoshlarga berilayotgan moddiy yordam bilangina cheklanmaydi. U, avvalo, inson qadrini e’zozlash, yoshlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlash va jamiyatda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan tizimdir. Bugungi yoshlar va qizlarning Vatan oldidagi mas’uliyati qaday namoyon bo’lmoqda?

Xulosa. Bugungi O’zbekiston yoshlari — faqat o’g’il bolalar emas, balki qizlar ham Vatan himoyasida faol. Tarixdan meros olgan jasorat bugun yoshlar qalbida yashamoqda. Ular: ilm va bilimda fidoyilik, jamiyat va Vatan manfaatini himoya qilish, zarurat tug’ilganda jonini fido qilishga tayyor. Yoshlar orasida Vatan yo’lida mas’uliyatni his qiladigan va harakat qiladigan avlod shakllanmoqda. Bu fidoyilik tarixiy uzviylikdan keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz

2. Sh.Mirziyoev. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Xarakatlar strategiyasini Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yo’lida amalga oshirishga oid davlat dasturi

3. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz

4. D.Sotivoldiyeva. Kelajak egalari: yoshlar uchun yangi ufqlar.NamDU Tuyutori

TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH INTENSIV TA’LIM YONDASHUVI

Butayev Norbek Tolib o’g’li

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

norbekbutayev@gmail.com (+99 893 992 41 46)


Annotatsiya. Mazkur maqolada intensiv ta’lim yondashuvi asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda intensiv o’qitishning mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o’rni hamda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishdagi

ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, intensiv yondashuv orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni qisqa muddatda samarali shakllantirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. intensiv ta’lim, intensiv yondashuv, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, pedagogika OTM, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, kasbiy rivojlanish, ta’lim samaradorligi, o‘quv jarayonini jadallashtirish.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalari, xususan, universitetlarda talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda mehnat bozori talablarining keskin o‘zgarishi, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zarurati ta’lim jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Shu jihatdan universitet talabalari uchun nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va kasbiy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda intensiv ta’limning mohiyati turlicha yondashuvlar asosida



1-rasm. Ta’lim jarayonida intensivlikning namoyan bo‘lishi.

izohlangan. Jumladan, rus olimi G.K.Selevko [1] ta’lim texnologiyalarini tahlil qilar ekan, intensiv o‘qitishni “o‘quv jarayonini jadallashtirish, o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga yo‘naltirilgan tizim” sifatida tavsiflaydi. V.P.Bespalko [2] esa pedagogik texnologiya nazariyasida “ta’lim jarayonini aniq loyihalash, boshqarish va natijaga yo‘naltirish orqali samaradorlikni oshirish intensiv yondashuvning asosiy omillaridan biridir” deb ta’kidlaydi.

Xorijiy olimlar ham intensiv ta’limning samaradorligini e’tirof etganlar. Xususan, J.Biggs [3] tomonidan ilgari surilgan konstruktiv moslashuv (constructive alignment) nazariyasiga ko‘ra, ta’lim jarayoni natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etilganda va talaba faol o‘quv subyekti sifatida ishtirok etganda o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi. D.Kolb [4] ning tajribaviy o‘qitish nazariyasida esa bilimlar samarali o‘zlashtirilishi bevosita faol tajriba, refleksiya va mustaqil faoliyat bilan bog‘liqligi asoslab beriladi. Bu esa mustaqil ta’lim ulushining ortishi sharoitida intensiv yondashuvning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi intensiv ta’lim yondashuvi asosida universitet talabalari kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularning pedagogik amaliyotdagi samaradorligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq holda “intensiv yondashuv” tushunchasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda universitetlarda o‘quv auditoriya soatlarining qisqarishi va mustaqil ta’lim soatlarining ortishi ta’lim jarayonini yangi asosda tashkil etishni talab etmoqda. Shu sababli intensiv yondashuv ta’lim jarayonini vaqt jihatidan siqilgan sharoitda maksimal samaradorlik bilan tashkil etishga xizmat qiladi.


“Intensiv” so‘zi lotin tilidagi intensio — “kuchaytirish”, “zo‘raytirish”, “kuchli rivojlantirish” ma’nolarini anglatadi [5]. Umumiy lug‘aviy jihatdan bu atama biror jarayonning qisqa vaqt ichida yuqori darajada, jadallik bilan amalga oshirilishini ifodalaydi. Ya’ni intensivlik - bu faoliyatning tezligi, zichligi va samaradorligi oshirilgan holatini bildiradi.

Mazkur tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq holda “intensiv yondashuv” tushunchasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi kunda universitetlarda o‘quv auditoriya soatlarining qisqarishi va mustaqil ta’lim soatlarining ortishi ta’lim jarayonini yangi asosda tashkil etishni talab etmoqda. Shu sababli

intensiv yondashuv ta’lim jarayonini vaqt jihatidan siqilgan sharoitda maksimal samaradorlik bilan tashkil etishga xizmat qiladi (1-rasm).

Bunda o’quv rejalar, o’quv fan dasturlari, sillabuslarda, o’quv adabiyotlarda o’zgarishlar bo’lganligi, ayniqsa tizimning auditoriya soatlari kamayib, mustaqil ta’lim soatlarining oshgani o’qituvchilarning katta hajmga ega mavzularning maqsadga erishish, ya’ni talabalarga tushunarli bo’lishida innovatsion yondashuvlar asosida intensiv o’qitish texnologiyalarini qo’llashni taqozo etadi [6].

Mazkur tadqiqotda universitet talabalari kasbiy kompetentligini intensiv ta’lim yondashuvi asosida rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash va asoslash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, faoliyatga yo’naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlar uyg’unligiga asoslandi.



2-rasm. Tadqiqot jarayonida foydalaniladigan metodlar.

Respublikamizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh va malakali muhandis kadrlarni tayyorlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish ustuvor vazifa etib belgilangan [7].

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy ishlanmalar tashkil etdi. Xususan, intensiv ta’limning mohiyati, uning o’quv jarayonini jadallashtirishdagi o’rni hamda auditoriya soatlarining qisqarishi va mustaqil ta’lim ulushining ortishi sharoitida samarali tashkil etish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi (2-rasm).

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati shundan iboratki, unda intensiv ta’lim yondashuvi universitet sharoitida auditoriya va mustaqil ta’lim nisbatining o’zgarishi bilan bog’liq holda kompleks tarzda ko’rib chiqildi. Bu esa talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish imkonini berdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, universitetlarda o’quv auditoriya soatlarining qisqarishi va mustaqil ta’lim ulushining ortishi sharoitida intensiv ta’lim yondashuvi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Intensiv yondashuv o’quv jarayonini jadallashtirish, mazmunini ixcham va amaliy yo’naltirilgan holda tashkil etish hamda talabalarining faol ishtirokini ta’minlash orqali qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беспалко В.П., (1989). Слагаемые педагогической технологии. Москва: Педагогика. 25–30 с.

2. Biggs J., (1996). Enhancing teaching through constructive alignment. Higher Education, 32(3), 347–364.
3. Kolb D.A., (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. pp. 20–38.
4. Селевко Г.К., (2005). Современне образовательне технoлoгии. Москва: Народное образование. 150–160 с.
5. Oxford University Press. (2020). *Oxford advanced learner’s dictionary* (10th ed.). Oxford: Oxford University Press.
6. Parmonov A.A., Talabalarning umumtexnik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning zarurati // “Qo’qon DPI Ilmiy xabarlar”. -2025. –B. 1672-1680.
7. Butayev N.T., Zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari // “Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar”. -2026. №3 (2), –B. 201-205. Ilmiy metodik jurnal. (OAK Rayosatining 2025-yil 28-noyabrda 377/5-son qarori).

OLIY TA’LIM MUASSASINING RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI.

Esanmurodov Otamurod Boboqand o’g’li
O’zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filali
esanmurodovotamurod@gmail.com
Tel:+998945737848

Kirish Oliy ta’lim muassasining raqamli ta’lim muhitida talabalar mustaqil ishini tashkil etish, tahliliy tafakkur va shaxsiy rivojlanishga qodir mutaxassislarini tayyorlash sifatining asosiy omiliga aylanmoqda. Zamonaviy platformalar, elektron kurslar va o’quv jarayonini boshqarish tizimlari talabaga faqat materiallarga kirish imkoniyatini bermay, balki rejalashtirish, o’zini nazorat qilish va o’qituvchilar bilan samarali muloqot vositalarini ham taqdim etadigan makon yaratadi [1,3].

Oliy ta’lim muassasining raqamli ta’lim muhiti mustaqil o’qishni amalga oshirish uchun infratuzilma sifatida talqin qilinadi. Bu muhit masofaviy ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar, bulutli saqlash tizimlari, testlash tizimlari va kommunikatsion kanallar kabi o’zaro bog’langan xizmatlar majmuasidan iborat. Uning qiymati faqat texnologik ta’minotda emas, balki resurslarni integratsiya qilishning puxta o’ylangan mantiqida ham namoyon bo’ladi. Barcha elementlar yagona interfeys va hisob qaydnomasiga birlashtirilganda, talaba mustaqil ish uchun butunlay uyg’un makonga ega bo’ladi, va alohida xizmatlar orasida almashishga hojat qolmaydi [8].

Bunday muhitning samaradorligi uning adaptivligi va oshkoraligi darajasi bilan belgilanadi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim trajektoriyalari, muddatlar bo’yicha avtomatik eslatmalar, ma’ruza yozuvlariga kirish va rivojlanish tahlili talabaga o’z individual ritmini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, universitet metodik qo’llab-quvvatlashni ta’minlashi muhim: raqamli infratuzilma tushunarli reglamentlar, ko’rsatmalar va konsultatsiyalar bilan qo’llab-quvvatlanishi zarur. Faqat texnologik baza va pedagogik mantiq uyg’unlashganda, talabalarning mustaqil ishlari ongli va tizimli xarakterga ega bo’ladi.

Mustaqillikni rivojlantirish uchun vazifalarni loyihalash

Talabalarning mustaqil ishlash sifatini ko’p jihatdan vazifalarning qanday loyihalashtirilganligi belgilaydi. Faqatgina konspektlar va testlarni elektron tizimga joylashtirish tahlil va sintez ko’nikmalarini shakllantirmaydi. Masalan: ma’lumot qidirish, manbalarni solishtirish, o’z pozitsiyasini asoslash, bilimlarni amaliy qo’llash kabi faoliyatlarni bajarishga majbur qilishi kerak [1,2].

Raqamli ta’lim muhitida buni quyidagi usullar orqali amalga oshirish mumkin: case-study (real vaziyatlar tahlili), loyihaviy ishlar, interaktiv simulyatsiyalar, tadqiqot mini-loyihalari, natijalar bosqichma-bosqich topshirilishi bilan. Shuningdek, struktura va erkinlik o’rtasidagi muvozanatni hisobga olish muhim. Bir tomondan, talabaga aniq baholash mezonlari, topshiriqlar muddati va muvaffaqiyatli ishlarning namunalarni taqdim etish zarur. Boshqa tomondan, ortiqcha reglamentatsiya tashabbuskorlikni kamaytiradi [8].